



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



***Dastlabki ma’lumot
2024- yil yanvar-dekabr***

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi***

Тел. 71-202-80-44 (45)

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr oyi, foizda)




2025- yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 80 118 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 319 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 79 799 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-dekabr, mlrd so'mda)



So'nggi 5 yillik (2020- 2024- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 117,0 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2023- 2024- yillar, foizda)



2024- yilning yanvar-dekabr oyida o'sish sur'ati 109,9 % ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-dekabr oyida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 403 431,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 109,9 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 64 629,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 103,0%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 338 802,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 111,4%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 37 932,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 114,5 %) tashkil etdi.


Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-dekabr oy)

| | Jami, mlrd so'm * | 2023- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, foizda |
|-------------------------------------|------------------------------|---|
| O'zbekiston Respublikasi | 403 431,8 | 109,9 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 13 683,7 | 108,3 |
| <i>viloyatlar:</i> | | |
| Andijon | 27 518,3 | 108,5 |
| Buxoro | 22 101,5 | 109,3 |
| Jizzax | 11 590,6 | 109,5 |
| Qashqadaryo | 26 071,1 | 109,0 |
| Navoiy | 15 000,0 | 109,9 |
| Namangan | 25 081,2 | 110,0 |
| Samarqand | 35 916,8 | 108,0 |
| Surxondaryo | 24 883,2 | 109,0 |
| Sirdaryo | 6 495,4 | 108,7 |
| Toshkent | 38 662,8 | 111,9 |
| Farg'ona | 35 002,4 | 109,2 |
| Xorazm | 16 083,6 | 109,9 |
| Toshkent sh. | 105 341,3 | 110,9 |

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2024- yilning yanvar-dekabr oyida 2023- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan respublikaning Toshkent (111,9%) viloyati, Toshkent shahrida (110,9 %) va Namangan (110,0 %) viloyati chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 26,1 % bilan 105 341,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Sirdaryo viloyati 1,6 % bilan 6 495,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hudud




Hajmi, mlrd. so'm

| | |
|------------------------|-----------|
| Toshkent sh. | 105 341,3 |
| Toshkent | 38 662,8 |
| Samarqand | 35 916,8 |
| Farg'ona | 35 002,4 |
| Andijon | 27 518,3 |
| Qashqadaryo | 26 071,1 |
| Namangan | 25 081,2 |
| Surxondaryo | 24 883,2 |
| Buxoro | 22 101,5 |
| Xorazm | 16 083,6 |
| Navoiy | 15 000,0 |
| Qoraqalpog'iston Resp. | 13 683,7 |
| Jizzax | 11 590,6 |
| Sirdaryo | 6 495,4 |




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-dekabr oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 338 802,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 11,4 % ga oshdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 84,0 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 3,0 % ga o'sdi va 64 629,2 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 16,0 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi (97,3 %), Surxondaryo (96,8 %) va Xorazm (96,8 %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 16,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahri (38,8 %), Toshkent (14,6 %), Samarqand (11,7 %) va Farg'ona (9,8 %) viloyatlarida kuzatildi.



AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi**

6 786,9

Andijon

8 028,2

Buxoro

10 726,3

Jizzax

7 612,9

Qashqadaryo

7 242,0

Navoiy

13 824,9

Namangan

8 093,6

Samarqand

8 445,0

Surxondaryo

8 547,1

Sirdaryo

7 041,9

Toshkent

12 552,4

Farg'ona

8 530,7

Xorazm


7 985,9

Toshkent sh.

34 237,3

2024- yilning yanvar-dekabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 10 853,3 ming so'm (2023- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 107,7 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Toshkent shahri (34 237,3 ming so'm), Navoiy (13 824,9 ming so'm) va Toshkent (12 552,4 ming so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr), foizda



- Dehqon bozorlari



- Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-dekabr)**

| | Jami, mlrd. so'm | 2023- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda |
|---------------------------------|---------------------------------|--|
| O'zbekiston Respublikasi | 37 932,8 | 114,5 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 1 644,7 | 113,4 |
| <i>viloyatlar:</i> | | |
| Andijon | 3 908,8 | 113,7 |
| Buxoro | 2 529,0 | 117,3 |
| Jizzax | 2 549,9 | 113,7 |
| Qashqadaryo | 2 773,6 | 109,0 |
| Navoiy | 1 056,6 | 120,3 |
| Namangan | 4 495,8 | 114,1 |
| Samarqand | 2 934,8 | 107,3 |
| Surxondaryo | 4 199,2 | 116,8 |
| Sirdaryo | 532,1 | 111,5 |
| Toshkent | 3 053,7 | 115,0 |
| Farg'ona | 2 646,1 | 117,0 |
| Xorazm | 3 002,9 | 115,1 |
| Toshkent sh. | 2 605,7 | 122,1 |


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar
aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**
(2024- yil yanvar-dekabr)















Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi,
mlrd so'm (2024- yil yanvar-dekabr)



Respublika bo'yicha 2024- yilning yanvar-dekabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 37 932,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 114,5 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 20 160,8 mlrd so'mni (120,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 17 772,0 mlrd so'mni tashkil etdi (108,9 %).












2024-yilning yanvar-dekabr oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 20 160,8 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (9 615,9 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

| | | |
|--|---|--|
| <p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>9 615,9 mlrd so'm</p>  <p>46,9 %</p> | <p>Non va non mahsulotlari</p> <p>2 359,4 mlrd so'm</p>  <p>11,5 %</p> | <p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>2 091,3 mlrd so'm</p>  <p>10,2 %</p> |
| <p>Tovuq go'shti</p> <p>914,3 mlrd so'm</p>  <p>4,5 %</p> | <p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>1 039,4 mlrd so'm</p>  <p>5,1 %</p> | <p>Tuxum</p> <p>680,4 mlrd so'm</p>  <p>3,3 %</p> |
| <p>Ziravorlar</p> <p>738,3 mlrd so'm</p>  <p>3,6 %</p> | <p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>881,3 mlrd so'm</p>  <p>4,3 %</p> | <p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>478,1 mlrd so'm</p>  <p>2,3 %</p> |
| <p>Tuzlamalar</p> <p>514,8 mlrd so'm</p>  <p>2,5 %</p> | <p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>319,2 mlrd so'm</p>  <p>1,6 %</p> | <p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>855,0 mlrd so'm</p>  <p>4,2 %</p> |

2024- yilning yanvar-dekabr oyida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 17 772,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 14 072,4 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 2 877,6 mlrd. so'mni, otlar – 483,0 mlrd so'mni, parrandalar – 70,4 mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

| | | |
|---|---|---|
| <p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>8 333,0 mlrd so'm</p>  <p>47,6 %</p> | <p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>3 367,8 mlrd so'm</p>  <p>19,2 %</p> | <p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>2 370,8 mlrd so'm</p>  <p>13,5 %</p> |
| <p>Qo'ylar</p> <p>2 483,6 mlrd so'm</p>  <p>14,2 %</p> | <p>Otlar</p> <p>483,0 mlrd so'm</p>  <p>2,8 %</p> | <p>Echkilar</p> <p>394,0 mlrd so'm</p>  <p>2,3 %</p> |
| <p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>39,8 mlrd so'm</p>  <p>0,2 %</p> | <p>Tovuqlar</p> <p>25,9 mlrd so'm</p>  <p>0,1 %</p> | <p>Quyionlar</p> <p>3,2 mlrd so'm</p>  <p>0,02 %</p> |
| <p>Qushlar</p> <p>1,5 mlrd so'm</p>  <p>0,01 %</p> |  | |

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 22 983 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 80 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 22 903 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr)

| | Jami mlrd so'm * | 2023- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda |
|---------------------------------|---------------------|---|
| O'zbekiston Respublikasi | 182 929,5 | 110,5 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 11 288,6 | 110,3 |
| <i>viloyatlar:</i> | | |
| Andijon | 12 780,2 | 110,3 |
| Buxoro | 10 058,3 | 111,6 |
| Jizzax | 5 681,2 | 110,6 |
| Qashqadaryo | 17 645,1 | 109,3 |
| Navoiy | 5 345,8 | 111,0 |
| Namangan | 18 536,6 | 110,9 |
| Samarqand | 19 753,0 | 110,9 |
| Surxondaryo | 8 376,0 | 108,2 |
| Sirdaryo | 3 664,3 | 110,1 |
| Toshkent | 12 920,8 | 110,6 |
| Farg'ona | 18 749,1 | 110,3 |
| Xorazm | 10 523,9 | 110,9 |
| Toshkent sh. | 27 606,7 | 111,6 |

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2024- yilning yanvar-dekabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 182 929,5 mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 86,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

| | Hajmi, mlrd so'm | Ulushi, foizda |
|-------------------------------------|-----------------------------|---------------------------|
| O'zbekiston Respublikasi | 124 399,9 | 100,0 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 2 431,9 | 2,0 |
| <i>viloyatlar:</i> | | |
| Andijon | 6 258,1 | 5,0 |
| Buxoro | 4 596,7 | 3,7 |
| Jizzax | 13 592,7 | 10,9 |
| Qashqadaryo | 3 542,1 | 2,8 |
| Navoiy | 3 792,3 | 3,0 |
| Namangan | 4 208,7 | 3,4 |
| Samarqand | 4 600,0 | 3,7 |
| Surxondaryo | 1 856,7 | 1,5 |
| Sirdaryo | 543,8 | 0,4 |
| Toshkent | 6 061,0 | 4,9 |
| Farg'ona | 6 657,4 | 5,4 |
| Xorazm | 5 751,8 | 4,6 |
| Toshkent sh. | 60 506,7 | 48,6 |


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Toshkent shahri (60 506,7 mlrd so'm), Jizzax (13 592,7 mlrd so'm) va Farg'ona (6 657,4 mlrd so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so‘m)



2024- yilning yanvar-dekabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) 124 399,9 mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 18,8 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 49 887,5 mlrd so‘m (o‘shish sur‘ati – 128,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 74 512,4 mlrd so‘m (o‘shish sur‘ati – 112,9 %)ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘atlari, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Respublika bo‘yicha 2024- yilning yanvar-dekabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 455 343,2 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 11,4 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

24,0 %

109 390,3 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

76,0 %

345 952,9 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 345 952,9 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ga to‘g‘ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 76,0 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr)

| | Jami mlrd so'm * | 2023- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda |
|-------------------------------------|---------------------|---|
| O'zbekiston Respublikasi | 455 343,2 | 111,4 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 6 757,0 | 111,8 |
| <i>viloyatlar:</i> | | |
| Andijon | 13 321,3 | 109,3 |
| Buxoro | 18 023,9 | 106,5 |
| Jizzax | 5 539,8 | 147,2 |
| Qashqadaryo | 8 844,5 | 110,0 |
| Navoiy | 4 852,7 | 106,3 |
| Namangan | 18 548,4 | 108,9 |
| Samarqand | 27 235,6 | 115,2 |
| Surxondaryo | 10 969,4 | 105,9 |
| Sirdaryo | 6 671,4 | 109,2 |
| Toshkent | 52 714,5 | 116,3 |
| Farg'ona | 25 732,3 | 110,3 |
| Xorazm | 9 033,0 | 111,0 |
| Toshkent sh. | 247 099,5 | 109,9 |

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yil 1- yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 44 661 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 345 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 44 316 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Jizzax (2,4 m.) viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi (170,4 %) va Samarqand (131,0 %) viloyatida kuzatildi.